



TASDIQLAYMAN”
Samarqand viloyati statistika
boshqarmasi boshlig‘i

Sh.A.Abdiyev

**Samarqand viloyati statistika boshqarmasining korrupsiyaga qarshi
kurashish bo‘yicha idoraviy komissiyasining navbatdagi yig‘ilishi**

BAYONI №3

2023- yil 28- aprel

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: Sh.A.Abdiyev Boshqarma boshlig‘i
Qatnashdilar: Boshqarma boshlig‘ining birinchi
o‘rinbosari, Komissiya a‘zolari,
boshqarma hamda shahar va tuman
statistika bo‘limi boshliqlari (ro‘yxat
bo‘yicha)

KUN TARTIBI

**“Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek
qo‘yish” mavzusini muhokama etish to‘g‘risida.**

(Sh.Abdiyev, T.Sidikov, M.Salimov, Z.Davronov, F.Eshonkulov, U.Sadirov, Sh.Abdiyev)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan boshqarma boshlig‘i Sh.Abdiyev so‘zga chiqib, “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yish” mavzusida axboroti tinglandi.

Shuningdek, statistika hisobotlari shakllarini onlayn qabul qilish va qayta ishlash jarayonida korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymasliklari yuzasidan barcha tizim xodimlari ogoh bo‘lishi kerakligini ta‘kidlab o‘tdi. Tizimda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish yuzasidan mas‘ullarga nisbatan tegishli ko‘rsatma va topshiriqlarni belgilab berdi.

Shu jumladan, kun tartibidagi yig‘ilishda Statistika faoliyatini tashkil etish va yig‘ma axborot-tahliliy ishlari bo‘limi boshlig‘i Z.Davronov so‘zga chiqib, “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yish” mavzusida ma‘ruza qildi.

Jumladan, davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko‘ndirish maqsadida biror-bir shaxs o‘zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to‘g‘risida, shuningdek, davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o‘xshash huquqbuzarliklarning o‘zlariga ma‘lum bo‘lib qolgan har qanday faktlari haqida o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etish lozimligini ta‘kidlab o‘tdi.

Yig‘ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1. Boshqarma boshlig'i Sh.Abdiyevning "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yish" mavzusi yuzasidan bergan axboroti tizimda rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Dasturiy texnik-ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi (U.Sadirov) va Axborot xizmati (F.Eshonkulov):

boshqarma veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni muntazam ravishda yangilab borish vazifasi topshirilsin.

3. Mazkur yig'ilish qarorlari ijrosini nazorat qilish boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyasi a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Komissiya kotibi



X.Xolmo'minov